

***ISSN:3060-4567 Modern education and development***  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA**  
**SUDLANGAN VA OZODLIK DAN MAHRUM ETILGAN**  
**SHAHSLARNING HUQUQLARINI BELGILANISHI VA**  
**AMALIYOTGA JORIY QILINISHI**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*

***Ikanova Lazokat***

[lazokat.ikanova@icloud.com](mailto:lazokat.ikanova@icloud.com)

***Annotatsiya:*** *O'zbekiston Respublikasi mustaqil va demokratik davlatdir. Har bir davlatda bo'lgani kabi O'zbekistonning o'z konstitutsiyasi mayjud bo'lib, unda davlatni tashkil qilib turuvchi har bir soha va fuqarolarning haq huquqlari aniq qilib belgilanib qo'yilgan. Respublika fuqarolarining teng huquqli ekanligi hech kimga sir emas, ammo mamlakatimizda shunday fuqarolar borki ularning huquqlari qonun bilan alohida belgilanib o'tilgan. Chunki mamlakatimizda barcha fuqarolarning huquqlari himoya qilinadi. Shu jumladan sudlangan va ozodlik dan mahrum etilgan fuqarolarning ham haq huquqlari O'zbekiston Respublikasi konstitusiyada aniq qilib belgilab berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *konstitusiya, huquq, sudlangan shaxslar, ozodlik dan mahrum etilgan fuqarolar, imkoniyatlar.*

Odatda jamiyatning har bir a'zosi o'zi yashayotgan mamlakatning konstitutsiyanini, qonunlarini bilishi va ularga rioya qilishi juda muhimdir. Chunki ko'plab huquqbazarliklar va jinoyatlar fuqarolarning qonunni bilmasliklaridan kelib chiqadi. Zero qonunni bilmaslik qonun oldida jinoyat uchun javobgarlikdan ozoz etmaydi.

Jamiyatimizdagi sudlangan va ozodlik dan mahrum etilgan shahslarning huquqlari haqida gapirar ekanmiz, avvalo O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasinin 28-moddasida "... Ozodlik dan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega. ..." deb belgilanganini ta'kidlash

joiz. Bunda, inson hatto jinoyat sodir etgan holda ham uning haq huquqlari qonun tomonidan himya qilinishi va uning sha'ni va qadr qimmati hurmat qilinishi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 43-moddasida "Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi." Deyilgan. Ya'ni har bir fuqaroning bandligini ta'minlash davlatning vazifasidir. Shu jumladan sudlangan shahslar va ozodlikdan mahrum etilgan shahslarning ham bandligini ta'minlash, kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil qilishga mas'ul. Oqibatda, jazoni ijro etuvchi muassasalarda sudlangan shahslarning kasbga yo'naltirilgan ta'limi tashkil qilingan bo'lib, u yerda mahkumlar duradgorlik, ustachilik, etikdo'zlik kabi kasblarga doir to'garaklar tashkil qilingan.

Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasi Respublikada istiqomat qilivchi fuqarolarning ta'lim olish huquqi haqida bo'lib unda "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. ..." deya ta'kidlangan. Shuningdek, ushbu moddada "... Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiyo'rta ta'lim davlat nazoratidadir. ..." deb davlat maktabgacha va umumiyo'rta ta'limni ta'minlashi keltirilgan. Ushbu moddalarning ta'minlanishini asoslash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 aprel kunidagi "Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning umumiyo'rta va kasb-hunar ta'limi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 318-son qarorini keltirishimiz mumkin. Unga ko'ra 6 ta jazoni ijro etish koloniylarida (Toshkent viloyatidagi 7, 13, 21 va 24-JIEK, Navoiy viloyatidagi 4 va 5-JIEK) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi umumta'lim maktablari filiallari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkularni qiziqishidan kelib chiqqan holda, to'garaklar tashkil etish orqali ularni xorijiy tillarga o'rgatish yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarni imkoniyatidan unumli foydalangan holda, bugungi kunda 539 nafar mahkumlar xorijiy tillarga o'rgatilmoqda. Ulardan 257 nafari ingliz tili, 133 nafari koreys tili, 137 nafari rus tili, 29 nafari turk tili va 5 nafari xitoy tiliga o'rgatilmoqda. Shu bilan birga jazoni ijro etish koloniyalarda tashkil qilingan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi umumta'lim maktablari filiallarida tahsil olayotgan 359 nafar mahkumlarga rus va ingliz tillari bo'yicha dars mashg'ulotlari o'tkazilib kelinmoqda. Umumta'lim maktabida tahsil olayotgan o'quvchi mahkumlar hududiy xalq ta'limi bo'limlari tomonidan 3 668 dona (shundan 227 tasi rus tili va 211 tasi ingliz tili) o'quv darsliklari bilan ta'minlangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ширинова Н.Д., Ширинова Н.Д. Янги бунёдкор қомусимизда инсон қадри//“Жамият” ижтимоий-сиёсий газетаси. 2023 йил, 6 апрель. №15(836).
2. [Конституция Республики Узбекистан/lex.uz>docs/6445147](http://lex.uz/docs/6445147)
3. Shirinova, N. D. (2006). The expression of the relation of substance and attribute in the language system. *The Problems of Philology and Methodics.– Bukhara*, 98-101.
4. Shirinova, N. D., & Shirinova, N. D. (2023). LISONIY PARALLELIZM HODISASIGA DOIR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 51-56.
5. Ширинова, Н. Д. (2021). ЭЛ-ЮРТ ҲУРМАТИГА САЗОВОР УСТОЗ: Ширинова Нилуфар Джаббаровна, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети Тилларни ўрганиш кафедраси доценти, филология фанлари номзоди, доцент. In *Научно-практическая конференция*.
6. Abdulkarimovich, M. T. (2022). The role of repetition as a stylistic tool in political texts. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 13, 64-65.
7. Islomxo'jayeva, S. (2024). IMPROVING ENGLISH LANGUAGE PROFICIENCY IN TERMS OF LEXICAL COMPETECY BY TOTAL PHYSICAL RESPONSE (TPR) METHOD AND ADAPTIVE

TECHNOLOGIES AMONG CADETS. *Journal of new century innovations*, 63(4), 128-132.

8. Иканова, Л. (2024). ПРИОРИТЕТ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ ОСУЖДЕННЫХ.
9. Ikanova, L. S. (2024). JAZONI IJRO ETUVCHI MUASSASSALARDA, TA'LIMNI TASHKIL QILISH TAJRIBALARI (AQSH MISOLIDA): Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 7(3), 26-31.
10. Lazokat, I. (2024). SOBIQ SUDLANGAN SHAHSLARGA INGLIZ TILINI O'QITISH: JAHON TAJRIBALARI. *World Scientific Research Journal*, 32(1), 214-216.
11. Иканова, Л. (2024). ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ МУАССАСАЛАРИДАН ОЗОД ҚИЛИНГАН ШАХСЛАРГА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 63(4), 120-127.
12. Lazokat, I. (2024). SUDLANGANLARNI CHET TILIGA O 'QITISH BO 'YICHA XORIJ TAJRIBASI (GERMANIYA VA AQSH MISOLIDA). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 54(2), 65-69.
13. Латипов, О. Ж. (2022). КОННОТАЦИИ ВОКРУГ СЛОВА-ЗООНИМА "ВОЛК" В РУССКОМ, УЗБЕКСКОМ И ТАДЖИКСКОМ ЯЗЫКАХ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 647-649.
14. Латипов, О. (2021). К вопросу об обучении языкам посредством выявления аналогий. *Актуальное в филологии*, 4(4).
15. Latipov, O. J. (1997). Analysis of the semantic structure of the thematic spaces of "domestic animals" in different languages (On the material of Russian, Uzbek and Tajik languages): Author. dis. kand. filol. science. T., 1997.-28 p.
16. Магдиева, С. С., & Латипов, О. Ж. (2012). Русский язык. *Методическое руководство для учителей лицеев и колледжей по всем направлениям специальности*.

17. Узакова, М. Х., & Латипов, О. Ж. (2019). Оценка функциональной грамотности школьников на основе международных исследований PIRLS. *Вестник науки*, 3(10), 27-31.
18. Shirinova, N. D., & Shirinova, N. D. ORIENSS. 2023 № 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/lisoniy-parallelizm-hodisasiga-doir> (дата обращения: 10.10. 2023).
19. Shirinova, N. (2024). DEVELOPING COGNITIVE ACTIVITY OF CADETS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH. *ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ*, (54-4).
20. Shirinova, N. D., & Shirinova, N. D. (2023). LISONIY PARALLELIZM HODISASIGA DOIR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 51-56.
21. Shirinova, N. D. (2024). INPARALLELISM IN ENGLISH. *ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ*, (55-3).
22. Shirinova, N. D. (2024). GRADUAL INPARALLELISM IN UZBEK. *ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ*, (55-3).
23. Darvishova, G. K. (2023). SHARLOTTA BRONTE IJODIDA AYOLNING IJTIMOIY MAVQEI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 57-67.
24. Kenjabayevna, D. G. (2023). THE CONSTITUTION IS MY PRIDE. *TADQIQOTLAR*, 28(4), 89-91.
25. Kenjabayevna, D. G. (2023). DESCRIPTION OF FEMALE CHARACTERS IN CHARLOTTE BRONTE'S LITERARY STYLE. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 10(4), 126-129.
26. Darvishova, G. K., & Baxodirov, A. X. (2022). INGLIZ TILIDA SIFATLARNING QIYOSIY DARAJASI TAHLILI. *ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI*, 2(28), 21-28.
27. Дарвишова, Г. К. (2022). ШАРЛОТТА БРОНТЕ АСАРЛАРИДА БАДИЙ МАҲОРАТ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 754-757.

28. Иканова, Л. (2024, May). ОБРАЗОВАНИЕ В ТЮРЬМЕ: ФУНДАМЕНТАЛЬНОЕ ПРАВО И ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 3, No. 5, pp. 269-275).
29. Ikanova, L. S. Q. (2024). SUDLANGAN SHAXSLAR VA MAHKUMLARNING XULQ ATVORI VA QAYTA JINOYAT SODIR ETISHINI BARTARAF QILISHDA TA'LIMNING TA'SIRI (AQSH TAJRIBASI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 433-439.